



# KELAJAK YOSHLAR QO'LIDA



*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
I.A. Karimovning asarlaridagi  
barkamol avlodni tarbiyalashga oid  
hikmatli fikrlar majmuasi*

## XALQIMIZNING BARKAMOL AVLODI

*O'zbekiston kelajagi — o'zini Vatan ravnaqi, xalqimiz baxt-saodatiga baxshida etgan, har tomonlama barkamol bo'lib yetishayotgan yoshlar qo'lidadir. Ularni kuchli va buyuk davlatning munosib vakillari qilib voyaga yetkazish muqadas burchimizdir. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan.*

*Yurtboshimiz istiqlolning ilk kunlaridanoq bu muhim vazifani diqqat markazida tutib, o'sha yillari o'z dastxatlari bilan yoshlar gazetasiga taqdim etgan kitobchasidagi «Yoshlar uchun qancha xizmat qilsak arziydi», degan so'zlariga sodiq qolib, munosib farzandlar tarbiyasi uchun jon kuydirib kelmoqda. Yo 'lboshchimizning: «Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baqvavat, shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, imon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman. Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom*

*avlodgina qura oladi», degan so 'zlari mamlakatimiz istiqololi va istiqboli uchun mas 'ul bo 'lgan har bir kishining dilidan joy olgan.*

*Mustaqilligimizni ko 'z qorachig 'idek asraydigan, uni mustahkamlash uchun g 'ayrat-shijot, kerak bo 'lganida qahramonlik ko 'rsata oladigan, Vatan va millat ravnaqi uchun fidoyi yoshlarni — barkamol avlodni tarbiyalash haqiqatan ham dolzarb vazifa. Qobiliyatli talabalar xorijiy davlatlardagi eng nufuzli oliy o 'quv yurtlariga o 'qishga yuborilmoqda, ular uchun zamonaviy texnika bilan jihozlangan litseylar va kollejlar, maktablar, oliy o 'quv yurtlari ochilmoxda, kadrlar tayyorlash milliy dasturi izchil amalga oshirilmoqda, sog 'lom avlod tarbiyasi bilan shug 'ullanishga jiddiy e 'tibor berilmoqda.*

*Bu kitobchada Yurtboshimizning «Mening farzandlarim» deya ardoqlayotgan yoshlar haqidagi, ularning tarbiyasi, milliy g 'oya, milliy mafkura, kelajakni yaratishdagi mas 'uliyatli vazifalar xususidagi hikmatomuz fikrlari o 'rin olgan.*

*Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro '-e 'tibori, avvalambor farzandlarimizning unib-o 'sib, ulg 'ayib, qanday inson bo 'lib hayotga kirib borishiga bog 'liqdir.*

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim.



Ey, ulug' O'zbekistonning navqiron avlod! Sizning bu hayotda orzu-intilishingiz, ko'zlagan maqsadingiz, qiladigan ishlariningiz ko'p. Lekin hech qachon unutmangki, sizning eng buyuk, eng muqaddas vazifangiz — yurtimiz istiqlolini, xalqimiz erku ozodligini ko'z qorachig'iday asrash, uning xavfsizligini himoyalashdir.



O'zbek xalqi hech qachon hech kimga bo'ysunmagan va hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi.



Biz o'z ajdodlarimiz bilan nafaqat faxrlanishimiz, balki kelajak avlodimiz ulardan ko'ra kuchli va qudratli bo'lishi uchun harakat qilishimiz zarur.



Tarixiy xotirasi bor inson — irodali inson.



Yoshlarimizni, bolalarimizni, farzandlari-mizni hech kimning qo'liga bermaymiz! Ularni o'zimiz, o'z qo'limiz bilan tarbiya qilamiz! Nega deganda, bular bizning farzandlarimiz. Mening farzandim, sizlarning farzandlarin-giz.



Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'-ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi.



Har birimiz, Vatan menga nima berdi, deb emas, men o'zim Vatanim uchun, el-yurt taraqqiyoti va istiqboli uchun nima qilmoq-daman, mustaqilligimizni mustahkam qilishga qanday hissa qo'shmoqdaman, degan tuyg'u bilan yashashga erishmog'imiz darkor.

Avvalambor, bizning tayanchimiz va suyanchimiz, umidimiz va kelajagimiz bo'l mish farzandlarimizni, yosh avlodimizni shu tuyg'u va shu maqsad ruhida tarbiyalashimiz ham qarz, ham farzdir.



O'zbekiston — muqaddas Vatan. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har bir qarichiga mehru muhabbat uyg'otish — bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammasizni quvontiradi.



Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz!

Ma'naviyat va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi.



Hozirgi yoshlarda va kelgusi avlodda o'z davlati, xalqining tarixini shak-shubhasiz bilish bilan bir qatorda, jahon tarixi va madaniyati yutuqlarini chuqur o'rganish zarurligini tushunish va anglash hissini tarbiyalash lozim.



Kelajakdagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo'lajak fuqarolarning madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur.



Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlari-mizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.



O‘zbekistonimizning yorug‘ kelajagini ta’minlash — bizning pirovard maqsadimizdir.



Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir.



Shijoatli yoshlarimiz eng nufuzli xalqaro musobaqalarda, jahon va qit'a bellashuvlariда yorqin g'abalabari bilan Vatanimiz shuhratini tarannum etib, dunyo ahlini hayratda qoldirmoqda.



Fidoyi o‘g‘il-qizlarimiz timsolida mamlakatimizning o‘sib-yangilanib, kuchli va qudratli davlatga aylanib borayotgani yana bir bor namoyon bo‘lmoqda.



Yoshlarimiz sharafiga baland ko'tarilayotgan O'zbekiston bayrog'i ming-minglab sport ixlosmandlari, xalqaro jamoatchilik tomonidan qizg'in olqishlar bilan kutib olinayotganining o'zi shu yurtda yashayotgan har qaysi insonga cheksiz g'urur va iftixor baxsh etishi shubhasiz.



Yosh avlodimizni ota-bobolarimiz qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasini o'zimiz uchun ulug'vor vazifa qilib qo'yganmiz.



Biz farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo'lgan ta'sirlardan himoya qilishimiz, ularni hayotga, yon-atrofda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, imon-e'tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim.



Bugun yoshlارимиз qандай qадриятлар сари иттимоқда, qандай орзу-ният ва о‘й-хаяйлар bilan yashamoқда – biz bunga aslo loqayd va befарq qaramasligimiz kerak.



Yoshlаримиз qalbida sog‘lom hayot tarziga иттишни, milliy va umuminsoniy qадриятларга hurmat-ehtirom tuyg‘ularini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.



Yosh avlodning har томонlama sog‘lom bo‘lib tug‘ilishiga alohida ahamiyat qaratish, «Sog‘lom ona — sog‘lom bola» degan shior ostida katta e’tibor bilan boshlagan harakatimizni davom ettirish va unga том ma’-noda yangi turtki berish, bu muammoga zamonaviy ko‘z bilan qarash va yetarli darajada mablag‘ ajratish masalalari doimiy diqqat markazimizda turishi darkor.



Farzandlarimiz armiya safida harbiy mutaxassisliklarni egallash bilan birga, jismoniy va ma'naviy jihatdan chiniqib, irodasi toblanmoqda, qat'iy hayotiy pozitsiyasi shakllanmoqda, eng muhimi, ular Vatan himoyasi uchun doimo tayyor turadigan fidoyi insonlar bo'lib kamol topmoqda.



Farzandlari kelajagini o'ylab yashash — o'zbek millatiga xos fazilat.



Litsey va kollejlarni bitirgan ming-minglab yoshlarimiz nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham muvaffaqiyatli ishla- moqda.



Bizning ishimizga kimki baho bermoqchi bo'lsa, yoshlarga, ularning ongi va dunyoqarashiga boqsin.



Ertaga bizning o'rnimizga keladigan, biz boshlagan oliyjanob ishlarni munosib davom ettirishga qodir bo'lgan yoshlarimiz ana shu beba ho ma'naviy boylikdan bahramand bo'l-sin, shu asosda o'zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini anglab yetsin.



Bugungi erkin va farovon hayotni ko'z qorachig'idek asrash bilan birgalikda Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyi in-sonlarni yodga olish, ularning xotirasini abadiylashtirish, so'nmas jasoratini xotiramizda mangu saqlash, insonning tirikligida qadriga yetish biz uchun ham farz, ham qarzdir.



Inson hayoti abadiy emas, lekin xotira mangu, xotira boqiy.



Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.



Vatanimizni, milliy qadriyatlarimizni doimo e'zozlashimiz, yurt tinchligi va barqarorligining qadriga yetishimiz, ularni yanada mustahkamlashimiz kerak.



Muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, avvalambor, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.



Barchamizni dunyoga keltirgan, ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini farzandlariga ba'g'ishlagan, biz oldida umrbod qarzdor bo'lган mehribon onalarimiz, mo'tabar momo va buvilarimizga ta'zim qilamiz.



Yoshlarimiz ongu shuurida o'tganlarni yod etish, tiriklarni qadrlashdek insoniy fazilatlar tobora mustahkam qaror topmoqda.



Yoshlarimiz o'zligini anglab borgani saj ularning ongida «Biz kimmiz, kimlarning avlodimiz, kimlar bilan faxrlanamiz, biz ularga munosib bo'la olayapmizmi?» degan yonda shuv yanada chuqurlashishi, amalda namoyon bo'lmog'i lozim.



Ertangi kun, hech shubhasiz, intellektual boylikka ega bo'lgan millatniki, yoshlarni-kidir.



Biz yosh avlodimizni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga, ularning umumbashariy taraqqiyot yutuqlari, zamonaviy bilimlarni har tomonlama chuqur va puxta egallashi uchun barcha shart-sharoitni yaratib berishimiz lozim.



Yoshlarimizni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, barcha sohalarda dunyodagi teng-

oshlari bilan bellasha oladigan, biz boshlagan ishlarning munosib davomchilari, mard va jasur, komil insonlar qilib tarbiyalash — bu nafaqat katta baxt, ayni paytda bu, avvalo o'zbek xalqining qadimiy shuhratini qayta liklash, uning xalqaro maydondagi obro'-tiborini yanada yuksaltirish, rivojlangan davillar safidan munosib o'rinn egallashining asosiy sharti va garovidir.



Ishonchim komilki, yosh avlodimiz, kelgusi nasllar biz boshlagan mana shu ishlarning munosib davomchilari bo'lib, ona yurtimiz, bebahoh tariximiz, ulug' ajdodlarimiz, qadimiy shaharlarimiz bilan hamisha g'urulanib yashaydi.



Buyuk olimlar va mutafakkir zotlar, aziz-avliyolar va yengilmas sarkardalarga beshik bo'lgan muqaddas diyorimiz ularning munosib davomchilari bo'lmish bugungi avlod vakillariga ham kuch-quvvat va qanot beradi, xalqimiz orasidan yangi-yangi xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolarni tarbiyalab voyaga yetkazadi.



O'zbekistonimizda o'zgalarning havasini tortadigan erkin va farovon jamiyatni albatta quramiz, o'zimizning ezgu-maqsadlarimizga albatta yetamiz.



Mustaqillik yillari davomida yurtdoshlarimiz dunyoqarashining tubdan o'zgargani, avvalo, yosh avlodimizni tarbiyalash va ma'naviy yuksaltirish yo'lida qilayotgan barcha-barcha ishlarimiz o'z ifodasini topgan, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.



Har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan bu-yuk kuchni ko'radi.



Qishloqlarimizda, kichik shaharlarda istiqomat qilayotgan o'g'il-qizlarimizni munosib ish bilan ta'minlashga, ayniqsa, armiya saflaridan muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytganlarga alohida e'tibor berishimiz darkor.



O'quvchi va talabalarning zamonaviy bilim olishini ta'minlash bilan birga, ularning maishiy sharoitini yanada yaxshilash, sport bilan muntazam shug'ullanishi bo'yicha aniq rejalar belgilanishi darkor.



Biz iste'dodli farzandlarimiz bilan, ularning jahon sport maydonlari, xalqaro fan olimpiadalari, madaniyat va san'at olamida erishayotgan katta yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.



Yurtimizda o'tkazilayotgan «Nihol» va «Zulfiya» mukofoti tanlovleri, «Yangi avlod»

va «Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovlari ming-minglab yosh iste'dod egalarini kashf etayotgani barchamizni quvontiradi.



Farzandlarimizning zamonaviy bilim va tarbiya olishi — oldimizga qo'ygan maqsadimizning faqatgina bir qismi ekanini anglab olishimiz kerak.



Yoshlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbega ega bo'lishini, bugungi o'ta murakkab va tahlikali zamonda mavjud bo'lgan har qanday xatarlarga, zararli ta'sir va oqimlarga nisbatan ogoh, sezgir va hushyor bo'lib yashashini, jamiyatimiz hayotida munosib o'rinnegallashini ta'minlashdan iborat.



Farzandlarimizga nafaqat ishonch bildirish, balki ularga o'zini amalda namoyon etishi uchun maydonni kengaytirish kerak.



Men shu yurting rahbari bo'lib, har qaysi ota-onaning yonida turib, jondan aziz farzandlarimizga bildirilgan orzu-niyatlarimni amalgaga oshirishda o'zimni mas'ul, deb bila-man va bunday vazifamdan hech qachon qaytmayman.



O'z mehnati, aql-zakovati va salohiyati bilan o'zini o'zi boqadigan, o'zini himoya qilishga, kelajagini o'z qo'li bilan qurishga qodir bo'lgan xalqni jahon ahli e'tirof etadi.



Milliy davlatchilikni barpo etish va mustahkamlash jarayonida obyektiv zarurat bo'l-gan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tishga erishish davlat va jamiyat qurilishi sohasida asosiy vazifamiz bo'lib qolishi muqarrardir.



Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish, milliy armiyamizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash — bularning barchasi vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ko‘z qorachig‘iday asrashning asosiy sharti va tarovatidir.



Yoshlarimizni bizning tabiatimizga begona bo‘lgan g‘arazli oqimlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, o‘z mustaqil fikriga ega, ma’naviy yuksak, komil insonlar etib voyaga yetkazish, ularning jamiyatimizda mustahkam va munosib o‘rin egallashiga barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz darkor.



Bizning go‘zal yurtimiz, noyob tabiatimiz, betakror vatanimiz, mehnatkash, bag‘rikeng va olivjanob xalqimiz bor.



Shunday yurtda yashash, shunday tabiatdan nafas olish, mana shunday yakkayu yagona vatanga ega bo'lish, shunday xalqning farzandi bo'lishdek taqdirni Alloh taolo ham-maga ham bermaydi.



Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish, chindan ham, barchamiz uchun oliy saodatdir.



O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q.



Xalqimizning yengilmas bahodiri Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz — bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.



Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi.



Biz beabajo merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurrolga ega bo'lamiz.



Biz o'z farzandlarimizning baxtu saodatini, iqboli va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-ko'ydagি odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur.



Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.



Yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim.



Jahon — keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakkayu yagona.



Yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.



Biz Vatan tuyg'usini mana shunday yaxlit holda, ya'ni dunyoda yagona o'zbek millati bor, xorazmlik, farg'onalik, surxondaryolik o'rtaida hech qanday milliy farq yo'q, ularning barchasi o'zbek xalqining farzandi, deb anglashimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur.



Biz muqaddas dinimiz va qadriyatlarimizni doimo ulug'lab, shu bilan birga, dunyoviy hayotga ham qat'iy ishonch bilan intilib yashagan taqdirdagina o'z ezgu maqsadlari-mizga yeta olamiz.



Biz faqatgina bugungi kunni emas, balki ertamizni, kelajak avlodlarni ham o'yashimiz kerak.



Biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'lidan hech qachon qaytmaymiz.



Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro ham-jamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz.



Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur.



Yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin.



Agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tanu bir jon bo'lib yashasak, o'zi-

mizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.



Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlарimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'l-maydi.



Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.



Yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda, milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan istedodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasisiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.



Bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilansmasdan, eng buyuk jasorat — bu ma'naviy jasorat, deb javob bersak, o'laymanki, yanglishmagan bo'lamiz.



Biz — boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma'naviyat vorislarimiz.



1991-yil 31-avgust sanasida qo'lga kiritilgan milliy mustaqillik — XX asrda xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ma'naviy jasorat namunasidir.



Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyo-tining poydevori.



Yetuk rahbarlarga, yosh va iqtidorli tadbirkorlarga va mutaxassislarga keng yo'l ochib

bermasdan, ularga tayanmasdan turib aslo olg'a yurolmaymiz.



Ishchan, aqlli, irodali, imoni but, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganishga intiluvchan, yuragida Vatan tuyg'usi kuchli bo'lgan yosh kadrlarga ishonish va ishni ularga topshirish kerak.



Mas'ul pallada o'z taqdirini ishonchli, bilimli va g'ayratli shaxslarga topshira olmagan millat o'z baxtiga zomin, kelajakdan mahrum bo'ladi. Va aksincha, kelajagi buyuk bo'lishini istagan millat o'z taqdirini ulug' maqsadga ega, oliyjanob, qat'iyatli, ma'rifatli insonlarga ishonch bildirib topshirgan holdagini o'z murodiga yetadi.



Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir.



Iste'dodli, fidoyi bolalarimiz, farzandlari-mizga bilim va kasb cho'qqilarini zabit etish uchun qanot berishimiz kerak.



Har qanday millatning ravnaqi, umumba-shariyat tarixida tutgan o'rni, mavqeい va shuh-rati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jis-moniy yetukligiga bog'liqdir.



Har qaysi inson Alloh taolo ato etgan no-yob qobiliyat va iste'dodini, avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'ati va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas.



Biz ona O'zbekiston istiqlolini, uning sha'-nu shavkatini qanday himoya etishni ota-

bobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning  
himoyasiga hamisha tayyor turmog‘imiz dar-  
kor.



Harakatchan, vatanparvar, yurtparvar, in-  
tilishi zo‘r, kuyunib gapirib, hayotda yonib  
yashaydigan, bezovta, jonkuyar odamlar bilan  
ishlashga men tayyorman.



Aql-zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishi-  
larni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo‘ygan  
maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda faro-  
vonlik va taraqqiyot qaror topadi.



Ota yurtimiz Turkiston — katta bir uy, bu-  
yuk ro‘zg‘or, buyuk bir oila. Bu oila farzand-  
lari qanchalik yaqin va ahil bo‘lsa, ro‘zg‘or  
ham shunchalik obod va to‘kin bo‘ladi.



Bizlar buzish yo'lidan emas, tuzish, barpo etish yo'lidan bordik. Biz borini asrab-avaylash, yo'g'ini yaratish yo'lidan bordik.



Istiqlolni himoyalash, uni qadrlash, ulug'-lash va unga xizmat qilish milliy ongimizga, aqidamizga aylansagina bizni tanlagan yo'limizdan hech qanday kuch qaytarolmaydi, qaddimizni bukolmaydi.



O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin.



Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak.



Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lif samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.



Millat, Vatan, xalq istiqboli degan muqadas tushunchalar hamma vaqt qalbimizning to'ridan joy olib, har birimizning xayolimizda, ongimizda charx urib turishi darkor.



Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin.



G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin.



Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga inson-parvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur.



Dunyoga umid bilan qadam qo'yib kela-yotgan navnihol inson hayotdan munosib o'rnini topsa, turmushidan, taqdiridan, vatan dan rozi bo'lib yashaydi, umr bo'yi bun-yodkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi.



Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil «izm»lardan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umum-insoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlar-gina fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi.



To'qqizinchi — o'n beshinchи asrlarda ma'-rifatli dunyo buxoriylar, farg'oniyilar, xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug'beklarni qanchalik izzat-ikrom qilgan bo'lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday ehtiromni qaytadan qo'lga kiritishimiz kerak.



Ma'rifatni unutish poymol bo'lishdir.



Yoshlarni zamonaviy fan-texnikanинг, umuman ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori mala-kali ixtisos egalari bo'lib yetishishga sharoit tug'dirmay turib, biz respublikamiz xalq xo'jaligini, sanoat ishlab chiqarishi sohalarini tubdan o'zgartira olmaymiz.



Ilm-ziyo salohiyati, bu — xalqning, vattanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir. Uni rivojlantirishda, yetuk mutaxassislarini tarbiyalashda davlat imkonni bo'lgan hamma ishni qiladi, hech narsani ayamaydi.



Kelajak — barkamol avlodga bog'liqdir.



Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot — jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir.



Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda o'zingning o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak.



Ulug' ajdodlarimizdan muqaddas meros bo'lib kelayotgan vatanga muhabbat tuyg'usi farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e'tiqodga, chinakam aqidaga aylansin.



XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu olıyjanob maqsadlarni odamlar qoniga singdirish uchun harakat qilyapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug' kungalarga erishishi muqarrar!



Ilm va tafakkur odamlar qalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz-baraka keltiradigan buyuk mo'jizadir.



Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amir Temur bobomizning «Kuch —adolatda» degan mashhur ta'birini bugungi kunga nisbatan qo'llab aytagidan bo'lsak, men unga qo'shimcha qilib «Kuch — bilim va tafakkurda», degan bo'ldar-dim.



Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yusak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, mafarifatli kishilarni tushunamiz.



Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak. Bu g'oya-

ning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas.



Biz bugun o'tish davrining qiyinchiliklariqa qaramasdan, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlар, farzandlarimiz to'g'risida o'yashimiz, ularning ma'naviy kamoloti va jismoniy sog'ligi, odamlarning sog'ligi, millatning sog'ligi to'g'risida qayg'urishimiz kerak.



O'tmishtsiz kelajak, hamkoriksiz taraqqiyot bo'lmaydi.



Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki shargona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz.



Sog'lom avlodni tarbiyalash — buyuk davlat poydevorini, farovon hayat asosini qurish deganidir.



Dunyoda xalq ishonchidan ulug' narsa-ning o'zi yo'q.



Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustuvor bo'lmos'i kerak. Milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmos'i kerak.



Yangi bilimlarni egallamasdan turib, bundan buyog'iga harakatlana olmaymiz.



Bugun ayollar va yoshlarning jamiyat hayotidagi o'rni va mavqeini yanada yuksaltish o'ta muhim masaladir.



Bugungi kunda O'zbekiston kelajagini yaratayotgan serg'ayrat yoshlарimizni boshimizga ko'tarishimiz lozim. Vatan uchun jo-nini jabborga berib ishlaydigan fidoyi kishi-larsiz O'zbekiston kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi.



Buyuk davlatning odamlari, eng avvalo, erkin va ozod bo'lishi, ularda milliy g'urur doimo jo'sh urib turishi, Vatan tuyg'usi har birining yurak-yuragidan joy olishi kerak.



Agar inson o'z yurtidan g'ururlanmasa, yurtini yomon ko'zlardan asrash uchun o'zini ayasa, unda bunday jamiyatning kelajagi yo'q.



Har bir avlod el-yurtining tarixini va ob-ro'yini o'zining farzandlik muhabbati va

e'tiqodi, sadoqati va bunyodkorligi, matonati va mardligi bilan barpo etadi.



Xudo bergen bolani boqish, tarbiyalash, yurtning asl farzandi etib voyaga yetkazish, avvalo, shu zaminda yashayotgan ota-onaning, qolaversa, shu el taqdiri qo'liga ishonib topshirilgan rahbarlarning zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.



Dunyoga kelib munosib farzand ko'rish, imorat qurish, nihol ekip bog' yaratish — otabobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan ezgu tilak va qutlug' insoniy burchdir.



Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.



Farzandlarimiz bizdan afzalroq, o'tkirroq, pokroq va savobli ishlarni bizdan ham ko'p-roq qiladigan bo'lishlari lozim. Ular jahon umumbashariy yutuqlarini egallashi, tariximizni, madaniyatimizni, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni chuqur bilmog'i kerak.



Fan taraqqiyoti hamma vaqt yosh avlodga tayanadi.



Bugungi olib borilayotgan ishlarimizda hali dunyoga kelmagan avlodlarning ham istakumidlari bor.



Toki biz ulug' bobolarimizning beqiyos aql-zakovati bilan faxrlanib yurganimiz singari kelgusi avlodlar ham bugungi olimlarimizning

ilmiy kashfiyotlari va salohiyatlaridan hamisha iftixor qilsinlar.



Faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyat-gina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin.



Ertangi kun yangicha fikrlaydigan, zamon-naviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak mala-kali mutaxassislarni talab etadi.



Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri, bu — ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish, uyg'onish g'oyasi asosida ma'naviy-ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishdir.



O'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismo-nan baquvvat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi.



O'zbekiston uchun, bugun va kelajak avlod uchun eng katta boylik — elning tinchligi va osoyishtaligi.



Sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetka-zish, ularni har tomonlama barkamol insonlar etib ulg'aytirish uchun sharoit yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.



Ota-bobolarimizning hayotbaxsh o'gitlari, umumbashariy andozalar, yuksak ma'naviy ruh asosida birlashgan, yangi ezgu maqsad-larga intilgan, o'z kuchi va salohiyatiga ishonib, aniq va ravshan islohotlar yo'lidan bora-yotgan xalqmiz.



Farzandlarimizni milliy va umumiy qadriyatlarimiz asosida, o'z fikru tafakkuri va zamonaviy bilimga ega bo'lgan vatanparvar

etib voyaga yetkazish — barchamizning ota-lik va onalik burchimizdir.



Dunyoda har qaysi kasb-hunarning o'ziga xos o'rni, ahamiyati va qadr-qimmati bor. Ammo ularning orasida eng ulug'i va sharaflisi, bu — o'qituvchilik kasbidir. Chunki muallim har birimizga saboq beradi, aql-idrokimizni yuksaltiradi, hayot ilmini o'rgatadi. Zahmatkash ustoz-murabbiylarning mehnati va tarbiyasi tufayli qalblarimiz poklanadi, dilimizda olижаноб insoniy fazilatlar kamol topadi.



Ustozni otadan ulug' deb bilgan ma'rifatparvar xalqimiz muallim va murabbiy zotini hamisha ardoqlab, ularning mehnatini qadr-lab keladi.



Yangi avlod deganda men, avvalo, o'zligini teran anglagan, ulug' mutafakkir ajdodlari-

mizning buyuk va betakror merosiga munosib voris bo'lgan, shu bilan birga, ilm-fan cho'qqilarini egallashda ma'rifiy dunyoda hech kimdan qolishmaydigan navqiron farzandlarimizni nazarda tutaman.



Yoshlar — ertangi hayotimiz. Ertangi kunitimiz yoshlarning qo'lida, yoshlarning harakatida, yoshlarning qurbida, kerak bo'lsa, qudratida. Qarang, shunday harakat hozir butun O'zbekistonimizni qamrab oldi. Men shundan g'ururlanaman. Bu harakat, bu intilishni aslo to'xtatib bo'lmaydi.



Biz mustaqilligimizning ilk yillaridanoq sog'lom avlod tarbiyasini eng ustuvor vazifa deb belgiladik. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tardik.



Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan

baquvvat, shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, imon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yusak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tu-shunaman.



Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'-lom avlodgina qura oladi.



Sog'lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizza o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir.



Sog'lom avlod tarbiyasi oson ish emas. U har bir inson, har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi.



Inson xalq uchun, Vatan uchun, o'z farzandlari va kelgusi nasllar uchun savobli ishlar qilib ulgurishi kerak.



O'zbekning hamma orzu-havaslari, hayotining mazmunida farzandlarining kelajagi, baxtu saodati bilan bog'liq maqsadlarni ko'ramiz.



Har bir odam o'z sog'lig'i haqida qayg'uishi, har bir oila o'zidan sog'lom nasl, sog'lom surriyot qoldirishni o'yashi zarur.



Sog'lom, odobli, aqli farzandlari bor inson chinakam boydir.



Agar farzand sog'lom, oqil, imon-e'tiqodli bo'lsa, ota-onasiga faqat rahmat keltiradi, odamlarga naf keltiradi, el-yurt nazaridan hech qachon qolmaydi.



Sog'lom farzand faqat sog'lom oiladan tug'iladi.



Baxtli oila qurish, sog'lom farzand o'stirish  
ko'proq har qaysi yigit-qizning o'z qo'lidadir.



Millat bor ekan, Milliy davlat bor ekan, uning  
mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-  
odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga  
olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning  
boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydala-  
nishga qaratilgan intilish va harakatlar doi-  
miy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar.



Muqaddas dinimizni asrash va uning aqi-  
dalariga rioya qilish shu yurtda yashayot-  
gan har qaysi mo'min-musulmon uchun  
qiyomat qarz.



Biz Sharq farzandi ekanimizdan, o'zimiz-  
ning urf-odatlarimizdan faxrlanamiz. Milliy  
qadriyatlarimizni asrash va hech qachon  
unutmaslik haqida ota-bobolarimizdan tar-  
biya olganmiz. Endi esa buni bolalarimizga  
ham o'rgatyapmiz.



Barchamizning tayanchimiz va suyanchimiz bo'lgan farzandlarimizning xursandchilagini, kerak bo'lsa, ochiq qiyofasi, baxtiyor chehrasini ko'rish, ertangi kunga ishonchini o'zimizga tasavvur qilish — shuning o'zi katta baxt emasmi?



Bizning milliy g'oyamiz yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi yuksak tushunchalarini o'z ichiga olishi sizlarga yaxshi ayon.



Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifalarimiz avvalgicha qoladi — bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatি qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada churqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir.



Biz matbuot va axborot erkinligining kaflatini bozor munosabatlari, axborot maydonida sog'lom raqobat tamoyillarining rivojlanishida ko'ramiz.



Davlatimiz tashqi siyosatining ma'no-mazmuni va maqsadi bitta — u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir.



Biz xalqaro terrorizmnni ota-bobolarimizdan qolgan muqaddas dinimiz — islom dini bilan bog'lashdek xavfli niyat va urinishlarni keskin qoralaymiz.



Biz hech qachon hech kimdan kam bo'l-maganmiz va bo'lmaymiz ham.



Yoshlarda, avvalo hayotga qiziqish, qiziqish va yana bir bor qiziqish uyg'otish kerak va bu ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning negizini tashkil etishi lozim.



Talaba qizlarimizning sport bilan ommaviy ravishda shug'ullanishi uchun har tomonlama imkoniyat tug'dirib berish kerak.